



## YANGI O‘ZBEKISTON YOSHLARINING YUKSAK MA’NAVIY- MA’RIFIY YUTUQLARI VA HUQUQLARI E’TIROFI

*Baxtiyarova Madinabonu Ikrom qizi*

*Nizomiy nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti*

*Ma’naviyat asoslari yo‘nalishi 2-kurs magistranti*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada Yangi O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat dasturlarining samaradorligi va olib borilayotgan islohotlar zamirida erishilgan yutuqlarning joriy 2026-yil

24-fevral kun poytaxtimizning muhtasham “Ko‘ksaroy” majmuasida yurtimiz rahbari

Sh.M.Mirziyoyev va yoshlar bilan bo‘lib o‘tgan shukuhli uchrashuvidagi e’tirofi haqida so‘z boradi. Yangi O‘zbekiston yosh avlod vakillarining ma’naviy-ma’rifiy sohalarda erishilgan g‘alabalari sarxisobi va fan-ta’lim, tadbirkorlik sohalarida yoshlarning haq-quqlarini yanada himoyalash borasida yoshlar bilan olib borilgan ochiq muloqotlar va qarashlar ushbu maqolada o‘z askisini topgan.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, Yoshlarga oid davlat dasturlari, islohotlar, Ko‘ksaroy, uchrashuv, yutuqlar, yoshlarning haq-huquqlari.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается эффективность государственных программ для молодежи в Новом Узбекистане и признание достижений, достигнутых в рамках проводимых реформ, в ходе торжественной встречи главы нашей страны Ш.М. Мирзиёева с молодежью 24 февраля 2026 года в великолепном комплексе «Коксарой» нашей столицы. В статье отражены итоги побед, одержанных молодым поколением Нового Узбекистана в духовно-образовательной сфере, а также открытые диалоги и



мнения, высказанные с молодежью по вопросам дальнейшей защиты прав молодежи в области науки, образования и предпринимательства.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, «Программа государственного устройства молодежи», реформы, Куксарой, встреча, достижения, права молодежи.

Abstract: This article discusses the effectiveness of state programs for youth in New Uzbekistan and the recognition of the achievements made under the ongoing reforms during the solemn meeting of the head of our country, Sh.M. Mirziyoyev, with the youth on February 24, 2026, in the magnificent "Koksaroy" complex of our capital. This article reflects the summary of the victories achieved by the young generation of New Uzbekistan in the spiritual and educational spheres and the open dialogues and views held with young people on further protecting the rights of young people in the fields of science, education, and entrepreneurship.

Keywords: New Uzbekistan, "Youth State Program", reforms, Kuksaroy, meeting, achievements, youth rights.

## KIRISH

Bugun XXI asrda barcha mintaqalarga tezkor sur'atlardagi zamonaviy texnika va texnologiyalar jadallik bilan kirib bormoqda. Shu jumladan bugun mamlakatimiz O'zbekistonda ham fan-texnika va texnologiyalar, sun'iy intellekt va muhim davr kashfiyotlari ilg'or sur'atlarda yoshlar va jamiyat orasida keng tarqalib ommalashib bormoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Shunday ekan, bu bo'layotgan jarayonlar bilan bir qatorda, yoshlarimizning ongu tafakkurida Vatanga muhabbat, sadoqat, ezgulik, mustaqillikni asrab-avaylash, vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda ilm-fan, sport va ta'lim sohalarining zamonaviy tendensiyalarga javob berishida muhim o'rni borligini unutmasligimiz lozim.

Darhaqiqat, bu borada bugun Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar zamirida aynan mana shu omillar asos qilib olingani ham bejizga



emas.Zeroki,muhtaram prezidentimiz ta'kidlaganlaridek:" Biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan yana bir masala, bu -farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir.<sup>1</sup>".

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Barchamizga yaxshi ma'lumki,2023-yil 30-aprelda xalqimizning munosib tanlovi va qo'llab-quvvatlovi orqasidan O'zbekiston Respublikasining bosh qomusi bo'lmish Konstitutsiyamiz yangi tahrirda qabul qilindi. Mamlakatimiz hayotida yuksak tantana va qat'iyat bilan qabul qilingan yangi tahrirdagi qomusimiz jami 6 bo'lim, 27 bob va 155 ta moddadan iboratdir.Biz qabul qilgan ushbu bosh asosiy qomusimizning 53-moddasida ham:

“Har kimga ilmiy, texnikaviy va badiiy ijod erkinligi, madaniyat yutuqlaridan foydalanish huquqi kafolatlanadi. Intellektual mulk qonun bilan muhofaza qilinadi.Davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi.<sup>2</sup>” tariqa ta'kidlanishi ham yoshlarimizning vatanimiz yo'lidagi maqsadli say'i harakatlarining kafolati desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xususan,O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Yoshlarga oid davlat siyosati”dasturi doirasida ham yosh avlod vakillarining sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan samarali ishlari ham maqsadli ravishda tinimsiz amalga oshirilayotgani ham fikrimizning tasdig'i hisoblanadi.

Shu o'rinda bugungi islohotlarning zamirida yechim topilayotgan qator ijtimoiy sohalarda yaxshi natijalarga erishilmoqda,shu jumladan, yoshlarni ona

<sup>1</sup> ``Buyuk keljagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz``.;Toshkent.;O'zbekiston.;2017. 103-bet

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.Toshkent-O'zbekiston;2023. 24-bet



Vatanga, oilaga, mustaqillik g'oyalariga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasida joriy yilda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2026-yil 28-yanvardagi tegishli qarori bilan "Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarni milliy qadriyatlarga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash samaradorligini oshirish dasturi" tasdiqlanganiga guvoh bo'ldik. Mazkur qaror asosida esa dastur doirasida maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasbiy hamda oliy ta'lim tizimi tashkilotlarida yagona milliy tarbiyaning yaxlit tizimi yaratilishi,

har dushanba kuni barcha ta'lim tashkilotlarida "Kelajak soati" darsi o'tiladi, dars ssenariylari asosida yaratilgan kontentlar "milliytarbiya.uz" elektron platformasiga joylashtirilishi, dasturda belgilangan vazifalarga erishish maqsadida O'zbekistonning Milliy tarbiya modeli ishlab chiqilishi, har yili ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul rahbar va pedagoglar o'rtasida "Milliy qadriyatlar targ'ibotchisi" respublika tanlovi o'tkazilishi belgilangan bo'lib, bundan ham yaxshi va tizimli ravishda 2026-yil 1-iyungacha qadar O'zbekistonning Milliy tarbiya modelining, har yili 1-sentabrgacha qadar ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning namunaviy ish rejalari tasdiqlanishi, 2025-2026 o'quv yilidan boshlab "Jasorat maktablari" o'quvchilari o'rtasida ikki bosqichdan iborat "Jasorat uchqunlari" harbiy-vatanparvarlik va sport musobaqasi o'tkazilishi, 2026-yil iyun oyidan boshlab

ta'lim tashkilotlaridagi "Vatan tayanchi" harakati a'zolarining harbiy-vatanparvarlik forumi tashkil etilishi kabi muhim qadamlar maqsad qilib olinmoqda.

Yangi O'zbekiston zamonaviy islohotlari asosida olib borilayotgan barcha harakatlar natijasi o'laroq bugun yosh avlod vakillarining ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim ishlar ya'ni:

yoshlarga munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ularning mehnatga oid qonuniy huquqlarini himoya qilish orqali ularning iqtisodiy huquq va imkoniyatlarini kengaytirib borilayotgani;



yoshlarni madaniyat, san'at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, yoshlarda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish, ular o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, xotin-qizlar bandligini ta'minlashga qaratilgan "besh muhim tashabbus"ni amalga oshirishda faol qadamlar tashlanayotgani;

ijtimoiy himoyaga muhtoj, nogironligi bor yoshlar, mehribonlik uylarida tarbiyalangan, yetim bolalar, boquvchini yo'qotgan va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning qo'llab-quvvatlanayotgani;

salohiyatli yosh kadrlarning qo'llab-quvvatlash va davlat fuqarolik xizmatiga tayyorlash, ularning mehnat bozorida raqobatbardoshligini ta'minlanayotgani;

yosh xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirilib, ularning jamiyatdagi mavqeyini yanada oshirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirilayotgani ham bugungi yoshlarimiz ong-u tafakkurida kelajakga ishonch va vatanparvarlik tuyg'ularini, milliy o'zlikni anglash fazilatlarini shakllantirib berayotgani haqiqat desak mubolag'a bo'lmaydi.

Shu o'rinda yurtboshimiz aytib o'tkanlaridek: "Biz uchun o'z dolzarbligi va ahamiyatini hech qachon yo'qotmaydigan yana bir masala, bu -farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash vazifasidir. "Davlatimiz rahbari so'zini davom ettirar ekan buning uchun ta'lim va tarbiyaga xavf solayotgan bugungi dunyodagi xavf-xataralarga ham alohida to'xtalib o'tadi va shunday ta'kidlaydi: "Ayniqsa, dunyoda diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, «ommaviy madaniyat» kabi yovuz xavf-xatarlar insoniyat boshiga og'ir kulfatlar solayotgan hozirgi murakkab bir davrda yoshlar tarbiyasi masalasi yanada muhim ahamiyat kasb etayotgani hech kimga sir emas. Albatta, bugungi kunda yurtimizda yoshlarimiz qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'usini kamol toptirish, ulami sog'lom turmush tarzi rahida tarbiyalashga qaratilgan targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilmoqda. Ammo ochiq tan olishimiz kerakki, bu borada amalga oshirayotgan ishlarimiz hali yetarli darajada



emas. Shuning uchun biz yoshlarimiz, ayniqsa, uyushmagan yoshlar bilan ishlashga jiddiy e'tibor qaratishimiz zarur. Biz ular bilan ko'proq gaplashishimiz, qalbiga quloq solishimiz, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak.<sup>3</sup>”

Shuni alohida qayd etish lozimki, davlat miqqiyosida yoshlar va davlatning o'zaro hamkorligi va ularning haq huquqlarining kafolatlanishini, bugun xalqimizga, ayniqsa, o'sib kelayotgan yosh avlodga ro'y berayotgan o'zgarishlar mohiyatini va ertangi ko'zlagan marralarimizni, Yangi O'zbekiston, Uchinchi Renessans mazmun-mohiyatini, “...odamlarimiz turmushda, tafakkurida kuzatilayotgan yangilanishlar, shuningdek, jamiyatimiz hayotida yangidan-yangi voqelikka aylanayotgan keskin burilishlar tasviri...»ni yetkazishni istarkanmiz, e'tiborimizni shubhasiz, ushbu yangilik va o'zgarishlarning tashabbuskori, Vatan va millat istiqboli, shoni yo'lida olib borayotgan faoliyati, ta'bir joiz bo'lsa, orzuyu istaklariga qaratmog'imiz, yoshlarning shaxsi, siyosiy irodasi va ruhiy olamini anglashga intilmog'imiz biz pedagoglarning oldidagi dolzarb masalaga aylannmog'i lozim.

Bundan tashqari, izlanish va tadqiq olib borayotgan sohalarida yoshlarni qo'llab-quvvatlash ular orasidan iqtidorli va faol yoshlarni aniqlash, ularning salohiyatini ro'yobga chiqarish, ilm-fan, sport, madaniyat va san'at yo'nalishlarida yutuqlarga erishgan yoshlarni rag'batlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilib kelinayotgani ham bugungi islohotlarning natijasi va asosi hisoblanadi.

Pirovardida shuni ta'kidlash joizki, yurtimiz baxtiyor yoshlar mamlakati bo'lib, mamlakatimiz aholisining qariyb 64 foizini yoshlar, ya'ni- 30 yoshgacha bo'lganlar tashkil etadi. Albatta bu, davlatimiz zimmasiga ulkan mas'uliyat yuklashini ko'z oldimizga keltirsak, juda katta e'tibor, g'amxo'rlikni talab etadi, ikkinchi tomondan yoshlarimizga ko'rsatiladigan e'tibor, ertaga ulkan yutuq va natijalarini taqdim etib beradi. Chunonchi, Yangi O'zbekistondagi aholi qatlamidagi mehnat resurslarining

---

<sup>3</sup> Buyuk keljagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz`. Tashkent.; O'zbekiston.; 2017. 103-bet



yarmidan- ko‘pini yoshlar tashkil etadi. Kelgusida har uchinchi rahbar ham yoshlardan biri bo‘lib voyaga yetishini unutmasligimiz shart.

Binobarin,shu o‘rinda biz joriy yil 2026-yil 24-fevralda mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev va yurtimizning peshqadam va ilg‘or yoshlari bilan poytaxtimizdagi “Ko‘ksaroy” majmuasida yoshlar bilan muloqotining olib borilishi zamirida bu jarayonlar albatta, Yoshlar siyosatida yangi bosqich sifatida baholanmoqda.

Aytish lozimki,ushbu muloqot joriy yil 2026-yil 24-fevral kuni o‘tkazilib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yoshlar bilan uchrashu davomida yoshlar siyosatini yanada kuchaytirishga qaratilgan keng ko‘lamli topshiriq va tashabbuslarni ilgari surdilar.

Ta’bir joiz bo‘lsa,bu uchrashuvdan maqsad yoshlar tadbirkorligi va startaplarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va ularning haq huquqlarini kafolatlash, kasb-hunar va dual ta’lim tizimini kengaytirishga qaratilgan masalalar,yoshlar bandligini ta’minlash, og‘ir toifadagi yoshlar bilan manzilli ishlash samaradorligi, sport va sog‘lom turmush tarzini rivojlantirish istiqbollari, “Besh muhim tashabbus” doirasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan maqsad va vazifalar, shuningdek, joylarda yoshlar bilan ishlash tizimini kuchaytirish bo‘yicha aniq vazifalar belgilab ochiq muloqot davomida ta’kidlab o‘tildi.

Shu kabi ochiq fikr va sog‘lom muhitdagi muloqopt va ushrashuvlar natijasida bu kabi qaror va tashabbuslar yoshlarning bilim olishini, kasb egallashini, tadbirkor bo‘lish va ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish salohiyatini oshirib, jamiyatda o‘z o‘rnini topishi uchun yanada keng imkoniyatlar yaratadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.



Bundan tashqari, muloqot davomida shaxsan yurtboshimiz ta'kidlab o'tkanlaridek: "O'zbekiston Yoshlar taraqqiyoti global indeksida eng tez sur'atlarda rivojlanayotgan davlat deb e'lon qilingani bizga g'urur bag'ishlaydi.<sup>4</sup> Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosatining strategik maqsadi har bir yoshning erkin ta'lim olish, samarali mehnat faoliyatini olib borish, o'z-o'zini anglash va ijodiy rivojlanishi uchun sharoit yaratish, ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida darajasiga ko'tarilganligi yurtimizda o'rnak olsa arzigulik tajriba to'planishiga imkon berdiva ushbu muloqotda e'tirof etib o'tildi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, iste'dodli yoshlarni izlash va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ishlarni amalga oshirishda davlat tashkilotlari bilan bir qatorda yurtimizda faoliyat yuritayotgan nodavlat tashkilotlari ham faol ishtirok etmoqdalar va yoshlarning tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash borasidagi yoshlarning fikri tinglanib, tajribalar almashildi.

Ta'kidlash joizki, ta'lim, fan, texnika, axborot texnologiyalari, madaniyat, san'at, sport, tadbirkorlik sohalaridagi iste'dodli va iqtidorli yoshlarni rag'batlantirib borish, ularning turli tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash vazifalari bu tashkilotning mazkur yo'nalishdagi dolzarb vazifalaridan biri qilib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezident O'zbekiston ta'kidlab o'tganidek, "Biz yurtimizda qanday islohotlarga qo'l urmaylik, avvalo, siz kabi yoshlarga, sizlarning kuch-g'ayratingiz, azmu shijoatingizga suyanamiz. Barchangiz yaxshi bilasiz, bugun o'z oldimizga ulkan marralar qo'yganmiz. Ona Vatanimizda Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishdik. Biz oila, maktabgacha ta'lim, maktab va oliy ta'limni hamda ilmiy-madaniy dargohlarni bo'lg'usi Renessansning eng muhim bo'g'inlari deb hisoblaymiz. Shu sababli ayni ushbu sohalarda tub islohotlarni amalga oshirmoqdamiz. Ishonamanki, mamlakatimiz taraqqiyotining

---

<sup>4</sup> 2026-yil 24-fevralda mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev va yurtimizning yoshlari bilan poytaxtimizdagi "Ko'ksaroy" majmuasida yoshlar bilan muloqotidan



yangi poydevorini yaratishda sizlar singari fidoyi va vatanparvar yoshlarimiz faol ishtirok etib, munosib hissa qo‘shadilar”deya e’tirof etildi.

Ana shunday azmi qat’iy yoshlarning o‘z salohiyatini ruyobga chiqarish borasida yangilangan islohotlarning o‘ziga xos yo‘l xaritasi sifatida xizmat qilayotgan “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da belgilangan har bir maqsadning zamirida inson qadr-qimmati uchun, yosh avlodni qo‘llab-quvvatlash uchun qaratilgan islohotlar mujassamlashgan bo‘lib, ularning kelajak poydevorini mustahkamlashga o‘z hissasini qo‘shishda tinimsiz mehnat va mashaqqatda toblanib borishi va vatan ertasi uchun oldlariga qo‘ygan maqsadlariga erishishiga dasturiy amal bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishilishi kutilyotgani va bu borada amaliy ishlar olib borilayotgani ham eslatib o‘tildi. Shu bilan birga ta’lim muassasalaridagi o‘qitish dasturlari xalqaro standartlarga (PISA, STEAM) moslashtirilishi, bolalarning maktabgacha ta’lim muassasalari, yoshlarning umumta’lim maktablari va oliy ta’lim muassasalariga qamrovini davlat ta’lim muassasalari uchun imkoniyatlar kengaytirilishi hisobiga bosqichma-bosqich oshirilishi borasidagi maqsadli ishlar rejali tatbiq etilishi ham aytib o‘tildi. Jumladan, Respublikada 3-7 yoshgacha bo‘lgan bolalarning 80 foizi maktabgacha ta’lim tashkilotlariga qamrab olinishi rejalashtirilgani ham ta’kidlab o‘tildi.

Shu bilan bir qatorda, anjumanda yoshlar bilan ularning masalalari tinglanib, yoshlarning madaniy saviyasini oshirish uchun kutubxonalar, teatrlar, kinoteatrlar, muzeylar, istirohat bog‘lari va boshqa madaniyat muassasalari soni bosqichma-bosqich oshirilib, yoshlarning ommaviy sport turlari bilan shug‘ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratish orqali sport inshootlarining sig‘imi



30 foizga oshirish ham ko'zda tutiladi. Bugun dunyo arenalarida sport musobaqalarida qo'lga kiritilayotgan beqiyos yutuqlar ham mana sa'y-harakatlar samarasi o'laroq amalga oshirilmoqdadir.

Ayniqsa, shahmat bo'yicha yurtimiz bayrog'ini butun dunyoga tanitgan eng yosh va shijoatli, iste'dod egasi J. Sindarovning shaxmat bo'yicha chempionati g'olibi bo'lishi alohida tahsinga sozovor bo'luvchi tarixiy tantana bo'lgani qayd etildi. Bundan tashqari futbol bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar natijasi o'laroq, erishilgan natijalar xalqimizning qalbida shukuh va quvonch, g'urur nashidasini surishiga sababchi bo'ldi.

Mahallalarda yoshlarning ommaviy sport turlari bilan shug'ullanishlari uchun shart-sharoitlar yaratilishiga ham e'tibor berilishi ta'kidlab o'tildi va yana barcha hududlarda IT-parklar barpo etilishi, tuman (shahar)larda Raqamli texnologiyalar o'quv markazlari tashkil etilishi, "Bir million o'zbek dasturchisi" loyihasi asosida 200 mingga yaqin yoshlar o'qitish yo'lga qo'yilishi ham bugungu islohotlarning barchasi faqatgina ertangi avlod yoshlarning kelajagining ahamiyati yuqori ekanidan dalolat beradi. Yoshlarning sifatli, tezkor va arzon internet xizmatlaridan foydalanishi uchun sharoitlar yaratilishi, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini 2 baravar o'stirish ta'minlanishi "O'zbekiston Yoshlari – 2025" konsepsiyasining eng muhim natijalari bo'lgani qayd etib o'tildi.

Yosh avlodning sog'lom o'sishi, sifatli ta'lim olishi va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishini ta'minlash, shuningdek, yoshlarning madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va

kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan "besh muhim

tashabbus"ni joriy etish bo'yicha samarali ishlar amalga oshirilib sohad ishlar yana keng ko'lamda olib borilishi bunda shaxsan yoshlarning ham bevosita ro'li zarur ekanligi ta'kidlab o'tildi.



Yurtimizda tashkil etilayotgan yangi davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari,

umumta'lim maktablari, oliy o'quv yurtlari, nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari, zamonaviy

IT-parklar, madaniyat muassasalari va sport inshootlari, mutlaqo yangi namunadagi ta'lim maskanlari — “Prezident maktablari”, “Temurbeklar maktabi”, “Ijod maktablari” bugungi

globallashuv sharoitida raqobatga qodir bo'lgan yetuk kadrlarning yangi avlodini tarbiyalashga

xizmat qilishi maqsad qilinayotgani ammo bunda yoshlarning tashabbusi va kreativligi ham alohida bir zarurat ekanligi, ularning birdamlikdagi harakatlariga ham bog'liq ekanligi ta'kidlab o'tildi.

### **XULOSA**

Xulosa qilib aytganimizda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar yoshlarning

ta'lim olishi, intellektual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun hamda ularning har tomonlama

to'laqonli rivojlanishi uchun keng imkoniyatlarni yaratib berayotgani ham ayniqsa mamlakatimizda yoshlarga qratilayotgan e'tibor va e'tirofning yorqin nomoyin bo'layotganidan dalolatdir. Ayniqsa, bu islohotlarning asosi va poydevori bosh huquqiy qomusimiz Konstitusiyamizda belgilab qo'yilganligi ularni keng va har tomonlama amalga oshirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlatimiz va hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan dasturlar, strategiyalar, konsepsiyalar ham yoshlarni imkoniyatlarini amalga oshirish, ularni har tomonlama moddiy va ma'naviy qo'llab quvvatlashda, ilm va salohiyatlarini rivojlantirish va intellektual ta'lim darajalarini yuksaltirishga uchun xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Pirovardida, ushbu shukuhli va faraxli uchrashuv natijasida, Yangi



O'zbekiston yoshlarining yuksak ma'naviy-ma'rifiy yutuqlari va huquqlari e'tirof etilgan kun bo'ldi deb ishonch bilan ta'kidlashimiz maqsadga muvofiq bo'ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi , 01.05.2023
2. Ta'lim to'grisidagi qonun 23.09.2020
3. O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida Vazirlar mahkamasining qarori 18.01.2021
4. Sh.M.Mirziyoyev ``Buyuk keljagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz``.; Toshkent.; O'zbekiston.; 2017.

### **Internet manbalari**

1. Lex.uz
2. google.uz
3. yandex.uz
4. ziyo.uz